SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI OG‘ZAKI NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik va metodik asoslari ko’rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim sinf o’quvchilarida integratsiyalash orqali o‘quvchilarning monologik va dialogik nutqi, talaffuzi, lug‘at boyligi hamda kommunikativ faolligini rivojlantirish metodikasini asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Buning natijasida, sun’iy intellekt yordamida og‘zaki nutqni rivojlantirishga asoslangan to‘rt bosqichda o’tadigan metodik model ishlab chiqilgan. Model motivatsion, kommunikativ-amaliy, individual qayta aloqa va refleksiv-baholash bosqichlarini qamrab oladi. Shuningdek, nutqni SI yordamida aniqlash tizimlari va raqamli vositalardan foydalanishning pedagogic hamdan psixologik tamoyillari shu bilan birgalikda cheklovlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, og‘zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, chatbot, nutqni avtomatik aniqlash, raqamli pedagogika, individual ta’lim.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы совершенствования компетенции устной речи на английском языке у учащихся начальных классов с помощью технологий искусственного интеллекта. Основная цель исследования заключается в обосновании методики развития монологической и диалогической речи, произношения, словарного запаса и коммуникативной активности учащихся посредством интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс начальной школы. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, системного подхода и педагогического моделирования. В результате разработана четырёхэтапная методическая модель развития устной речи с использованием искусственного интеллекта. Модель включает мотивационный, коммуникативно-практический, индивидуально-обратной связи и рефлексивно-оценочный этапы. Кроме того, проанализированы педагогические и психологические принципы, а также ограничения использования систем распознавания речи на основе искусственного интеллекта и цифровых инструментов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, английский язык, устная речь, коммуникативная компетенция, чат-бот, распознавание речи, цифровая педагогика.

ABSTRACT

This article examines the pedagogical and methodological foundations for improving primary school pupils’ English-speaking competence through artificial intelligence technologies. The

main purpose of the study is to substantiate a methodology for developing pupils' monologic and dialogic speaking skills, pronunciation, vocabulary and communicative competence by integrating artificial intelligence technologies into primary education. The study employs scientific literature review, comparative analysis, a systematic approach and pedagogical modelling. As a result, a four-stage methodological model for developing speaking skills through artificial intelligence has been designed. The model comprises four stages: motivation, communicative practice, individual feedback, and reflection and assessment. Furthermore, the article analyses the pedagogical and psychological principles, as well as the limitations, of using AI-based speech recognition systems and digital tools.

Keywords: artificial intelligence, primary education, English language, speaking skills, communicative competence, chatbot, speech recognition, digital pedagogy.

1. INTRODUCTION — KIRISH

Hozirgi zamonaviy globallashuv davrda xorijiy tillarni o'rganish shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishining asosiy omillari qatorida turadi.Albatta,ingliz tili kundan kunga xalqaro muloqot,ilm-fan,texnologiya va ta'lim sohalarida o'rni ortib borayotganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida unga bo'lgan ehtiyojnini ham o'z o'zidan yuzaga keltiradi.

Ushbu davrda o‘quvchilar yangi til birliklarini tinglash, taqlid qilish, takrorlash, ko‘rgazmali materiallar hamda o‘yin faoliyati orqali o‘zlashtiradilar. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda ularning yosh xususiyatlariga mos, kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, o‘quvchilarning xato qilishdan qo‘rqishi, faol lug‘at boyligining cheklanganligi, talaffuz bilan bog‘liq qiyinchiliklar hamda individual nutqiy mashqlar uchun vaqtning yetarli emasligi shular jumlasidandir. Ushbu omillarning barchasi o‘quvchilarning kommunikativ faolligini pasaytirishi mumkin.

Vygotskiyning rivojlanishning sotsiokultural nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari ijtimoiy o‘zaro munosabatlar hamda tegishli pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlanadi [1] Mazkur nazariy yondashuv ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning ham muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv til o‘rganishning asosiy maqsadi tilni real hayotdagi muloqot jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [2]. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellektga asoslangan dialogik mashqlar o‘quvchilarning ingliz tilida o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Du va Daniel tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotda ingliz tilida so‘zlashuv amaliyotini rivojlantirishda sun'iy intellektga asoslangan chatbotlarning imkoniyatlari o‘rganilgan [3]. Xuddi shuningdek, Tai va Chen generativ sun'iy intellekt chatbotlaridan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etganlar [4].

Shunga qaramay, sun'iy intellekt vositalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish, ularni an'anaviy kommunikativ ta'lim metodlari bilan integratsiyalash hamda tegishli pedagogik nazorat asosida qo‘llash masalalarini yanada chuqur

metodologik asoslash talab etiladi.
Tadqiqotning maqsadi — sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.
Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik yondashuvlarni tahlil qilish.
Ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash.
Sun’iy intellektga asoslangan dialogik va monologik nutq faoliyatiga doir mashqlarni ishlab chiqish.
O‘quvchilarning og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik modelni taklif etish.
Sun’iy intellektdan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va baholash mezonlarini aniqlash.
Tadqiqot savoli: Sun’iy intellekt texnologiyalarini maqsadli pedagogik integratsiyalash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qanday metodik imkoniyatlarni yaratish mumkin?

2. METODLAR — TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy, metodologik va loyihalashga yo‘naltirilgan xususiyatga ega. Uning metodologik asosini kommunikativ yondashuv, ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda raqamli pedagogika tamoyillari tashkil etadi.
Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’lim, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi hamda sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlariga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil. An’anaviy kommunikativ mashqlarning didaktik imkoniyatlari sun’iy intellektga asoslangan interaktiv mashqlarning imkoniyatlari bilan qiyoslandi.

Tizimli yondashuv. Og‘zaki nutqni rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari, jumladan, talaffuz, lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik, ravonlik va kommunikativ faollik yaxlit pedagogik jarayon sifatida o‘rganildi.

Pedagogik modellashtirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida takomillashtirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi va uning tarkibiy komponentlari nazariy jihatdan asoslab berildi.
Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, individual tayyorgarlik darajasi va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish muhim metodik talab sifatida belgilandi.

Metodik model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Yosh xususiyatlariga moslik va tushunarlilik;
- Kommunikativ yo‘naltirilganlik;

- Individual yondashuv;
- Interfaollik va faol ishtirok;
- Pedagogik nazorat;
- Raqamli xavfsizlik.

Modelni ishlab chiqishda AI chatbotlari, avtomatik nutqni aniqlash texnologiyalari hamda vizual interaktiv materiallardan foydalanish imkoniyatlari hisobga olindi.

3.TADQIQOT NATIJALARI

Nazariy tahlil va pedagogik modellashtirish natijasida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan to‘rt bosqichli metodik model ishlab chiqildi.

3.1. Motivatsion bosqich

Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarda ingliz tilida muloqot qilishga nisbatan qiziqish va motivatsiyani shakllantirishdan iborat.

Dars mashg‘ulotlari rasmlar, audio materiallar, animatsiyalar va interaktiv savollar yordamida tashkil etiladi. Masalan, “My Family” (Mening oilam), “Animals” (Hayvonlar), “My School” (Mening maktabim) va “My Favourite Food” (Mening sevimli taomim) kabi mavzularga oid ko‘rgazmali materiallardan foydalaniladi.

O‘qituvchilar sun’iy intellekt vositalari yordamida o‘quvchilarning yosh va rivojlanish xususiyatlariga moslashtirilgan savollar hamda sodda kommunikativ vaziyatlarni yaratishlari mumkin.

3.2. Kommunikativ-amaliy bosqich

Ushbu bosqichda o‘quvchilar sun’iy intellektga asoslangan suhbat vositalari yordamida ingliz tilida dialoglar tuzish va muloqot qilishni mashq qiladilar.

Masalan, “At the Supermarket” (Supermarketda) mavzusi bo‘yicha quyidagi mashg‘ulotni tashkil etish mumkin:

AI: Hello! What would you like to buy?

O‘quvchi: I would like to buy some apples.

AI: How many apples do you need?

O‘quvchi: I need three apples.

AI: Here you are!

O‘quvchi: Thank you!

Mazkur mashg‘ulot orqali o‘quvchilar kundalik muloqotga oid lug‘at boyligidan foydalanish, savollarga javob berish hamda ingliz tilida dialogik suhbatni davom ettirish ko‘nikmalarini mashq qiladilar.

3.3. Refleksiv baholash bosqichi

Ushbu bosqichda o‘quvchilarning og‘zaki nutq faoliyati belgilangan baholash mezonlari asosida tahlil qilinadi va baholanadi.

1-jadval. Ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	**Asosiy ko‘rsatkichlar**
Talaffuz	So‘z va tovushlarni aniq hamda tushunarli talaffuz qilish
Lug’at boyligi	Mavzuga oid so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish
Grammatik to’g’rilik	Sodda gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish
Ravonlik	Fikrlarni izchil va mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash
Kommunikativ faollik	Savollar berish va ularga o‘rinli javob qaytarish

3.4.Taklif etilayotgan metodik model

2-jadval.Sun’iy intellect vositalari asosida og’zaki nutqni rivojlantirish modeli

Motivatsion	Audio,rasm,video
Kommunikativ-amaliy	SI rolli o’yin
Individual	Talaffuz mashqlari
refleksiv	Baholash mezonlari

4. NATIJALAR MUHOKAMASI

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik model boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik imkoniyatlarini tizimli ravishda namoyon etadi.

Birinchidan, sun’iy intellekt chatbotlari yordamida tashkil etiladigan dialogik mashqlar o‘quvchilarga ingliz tilida takroriy muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Du va Daniel tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlilda ham chatbotlarning ingliz tilida nutqiy amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish salohiyati alohida ta’kidlangan [3].

Ikkinchidan, Tai va Chen tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borilgan tadqiqot generativ sun’iy intellekt chatbotlaridan individual va juftlikdagi muloqot faoliyatlarida

foydalanish imkoniyatlarini namoyon etadi [4]. Ushbu natija taklif etilayotgan metodik modelning kommunikativ-amaliy bosqichini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt yordamida taqdim etiladigan individuallashtirilgan qayta aloqa o‘quvchilarning turli darajadagi bilim va ko‘nikmalarini hisobga olish imkonini beradi. Biroq avtomatlashtirilgan baholash tizimlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar pedagogik jihatdan qayta ko‘rib chiqilishi va ishonchliligi tekshirilishi lozim.

To‘rtinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda texnologiyalardan foydalanish davomiyligi va mazmuni ularning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. UNESCO tavsiyalarida ham generativ sun’iy intellektdan foydalanishda insonga yo‘naltirilgan yondashuv, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda yoshga muvofiqlik tamoyillarining muhimligi ta’kidlangan [5].

XULOSA

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlil va pedagogic modellashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga sun’iy intellekt texnologiyalarini rivovlantitishning individual,kommunikativ va interaktiv usullarini kengaytirish mumkin.
2. Vizual qo’llanmalar monologik nutqni,SI chatbotlari esa dialogik nutqni rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlarni tashkil etishda qo’llash mumkin.
3. Yuqorida taklif etilgan to’rt bosqichli metodologik model SI vositalarini o’quv maqsadlari bilan tizimli bog’lash imkonini beradi.

Demak, sun’iy intellekt vositalarini kommunikativ yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan integratsiyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik imkoniyatlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. 5th ed. Pearson Longman.
3. Du, J., & Daniel, B. K. (2024). Transforming language education: A systematic review of AI-powered chatbots for English as a foreign language speaking practice. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 6, 100230.
4. Tai, T.-Y., & Chen, H. H.-J. (2024). Improving elementary EFL speaking skills with generative AI chatbots: Exploring individual and paired interactions. *Computers & Education*.
5. Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. UNESCO.